

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

QORAQALPOG'ISTON TIBBIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:
№ 23/3 - 5/4
2023 yil « 31 » avgust

«TASDIQLAYMAN»

Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti
rektori O.A. Ataniyazova

2023 yil « »



**ICHKI KASALLIKLAR. FTIZIATRIYA
FANI
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	900 000	– Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot
Ta'lim sohasi:	910 000	– Sog'liqni saqlash
Ta'lim yo'nalishi:	60910600	– Tibbiy biologik ish

Fan / modul kodi		O'quv yili	Semestr	ECTS - Kreditlar	
		2023-2024	5/6	5	
Fan / modul turi		Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy		Qoraqalpoq/Rus			
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)	
	Ichki kasalliklar	90 (18/72)	90	180	

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishning maqsadi: ichki kasalliklar turli variantlarida, shuningdek, ba'zi keng tarqalgan kasalliklarning atipik kechishida, kam uchraydigan kasalliklarning tipik kechishida tashxisni asoslashni, ular asoratlari va davolash printsiplarini o'rgatish ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

Fanni o'qitishning vazifalari: ichki kasalliklarning etiologiya, patogenez, tasnifi, klinik ko'rinishlari, asoratlari, kechishi, oqibati, davolash va profilaktikasi bo'yicha bilimlarni takomillashtirish, bemorlarni anamnez yig'ish, turli tizimlar bo'yicha, klinik tekshirish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish, kasalliklarning asosiy diagnostik mezonlarini aniqlay olishni o'rgatish, taxminiy, klinik diagnozlarni asoslashni o'rgatish, bemorlarni tekshirish rejasini tuzish, shifokor taktikasi va davolashni o'rgatish, laborator va instrumental tekshiruvlar natijalarini interpretatsiya qilishni o'rgatish, qiyosiy taqqoslash va yakuniy diagnozni asoslay bilishni o'rgatish, ichki kasalliklarning turlicha variantlari bo'yicha kechishida davolashni tavsiya eta olish va shoshilinch holatlarda tezkor yordam berishni o'rgatishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

5-semestr:

1-mavzu. Nafas a'zolarini tekshirib ko'rish usullari.

Nafas a'zolarini tekshirib ko'rish usullari. Shikoyatlari, anamnez. Ko'krak qafasini ko'zdan kechirish: me'yoriy va patologik ko'krak qafaslari. Nafas tiplari, tezligi, chuqurligi va ritmi. Patologik nafas turlari (Grok, Cheyn-Stok, Biot va Kusmaul) ko'krak qafasini paypaslab ko'rish. Ko'krak qafasini perkussiya qilish. O'pka auskultatsiyasi. Asosiy nafas va patologik nafas shovqinlari. Laborator va asbob-uskunalar yordamida tashxislash.

2-mavzu. Yurak, qon-tomir aʼzolarini tekshirish usullari.

Soʻroqlash. Yurakning turli kasalliklarida ogʻriqli sindromi. Kasallik va hayotiy anamnez. Fizikal tekshirish usullari, Funktsional tekshiruv usullari. Yurak auskultatsiyasi. Auskultatsiya tartibi. Yurak tonlarining hosil boʻlish mexanizmi. Meʼyoriy yurak tonlarini tavsiflash. Yurak shovqinlari. Yurak shovqinlarini tavsiflash. Funktsional va organik shovqinlar. Qon-tomirlarni fizikal va asbob-uskunalar yordamida tekshirish. Yurakni asbob-uskunalar yordamida tekshirib koʻrish. EKG, EKG – tahlil qilish haqida tushuncha, FKG, ExoKG. Yurakni rentgenologik tekshirish.

3-mavzu. Hazm aʼzolarini tekshirish usullari.

Fizikal, laborator va asbob-uskunalar yordamida hazm va gepatobiliar sistemasini tekshirib koʻrish. Gastritlar. Oʻtkir va surunkali gastritlar. Oshqozon va oʻn ikki barmoq ichak yara kasalligi. Etiologiyasi, patogenezi, patologik anatomiyasi, klinikasi, oqimi, tasnifi, tashxislar, differentsial tashxis, davolash. Gepatitlar va jigar sirrozlari. Surunkali xoletsistitlar. Surunkali pankreatit. Etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi, tashxislash, differentsial tashxis. Davolash. Profilaktikasi.

4-mavzu. Bronxitlar. Pnevmoniyalar.

Bronxitlar. Oʻtkir va surunkali bronxitlar. Etiologiyasi, patogenezi, patologik anatomiyasi, klinikasi. Laborator va asbob-uskunalar yordamida tashxislash. Differentsial tashxis. Kechishi, maʼlumoti, oqibati, davolash. Pnevmoniyalar: oʻchoqli va krupoz. Etiologiyasi, patogenezi, patologik anatomiyasi: klinikasi, laborator va asbob uskunalar yordamida tashxislash. Differentsial tashxis. Maʼlumoti, asoratlari, davolash.

5-mavzu. Oʻtkir revmatik isitma. Yurakning surunkali revmatik kasalligi.

Oʻtkir revmatik isitma. Etiologiyasi, patogenezi, patologik anatomiyasi, klinikasi. Laborator va asbob-uskunalar yordamida tashxislash, differentsial tashxis, davolash. Yurakning surunkali revmatik kasalligi. Ortirilgan yurak nuqsonlari. Yurak mitral va aortal nuqsonlari. Yurak tugʻma nuqsonlari. Etiologiyasi, patogenezi, patologik anatomiyasi, klinikasi. Laborator va asbob-uskunalar yordamida tashxislash, kechishi, klinikasi, oqibati, davolash.

6-mavzu. YuIK: Stenokardiya, Miokard infarkti. Gipertoniya kasalligi.

Stenokardiya, Miokard infarkti. Etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi, laborator, asbob-uskunalar yordamida tekshirish. Differentsial tashxis. Gipertoniya kasalligi. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tashxislash, differentsial tashxis, davolash. Gipertonik krizlarning asoratlari. Tarifi, tasnifi, gipertonik krizlarda shoshilinch yordam.

7-mavzu. Jigar sirrozlari. Jigar sirrozlari.

Etiologiyasi, patogenezi, tasnifi, klinikasi, tashxislash, differentsial tashxis. Davolash. Profilaktikasi.

8-mavzu. Biriktiruvchi to'qimaning diffuz kasalliklari. TQB. RA.

Biriktiruvchi to'qimaning diffuz kasalliklari (BTDK): tizimli qizil bo'richa, revmatoid artrit. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tashxislash, tashxis mezonlari, differentsial tashxis, davolash.

9-mavzu. Pielonefritlar va glomerulonefritlar.

O'tkir va surunkali pielonefritlar va glomerulonefritlar. Etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tashxislash, differentsial tashxis, davolash.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

5-semestr:

1. Bemorlarni parvarishlash. Qabulxona. Qabulxona faoliyati bilan tanishish. Bo'limda tozalikni saqlash qoidalari. Tibbiy xujjatlarni rasmiylashtirish. Ichki kasalliklar propedevtikasi: bemorlarni fizikaviy tekshirish usullari.
2. Nafas a'zolarini tekshirib ko'rish usullari. Shikoyatlari, anamnez. Ko'krak qafasini ko'zdan kechirish: me'yoriy va patologik ko'krak qafaslari. Nafas tiplari, tezligi, chuqurligi va ritmi. Patologik nafas turlari (Grock, Cheyn-Stok, Biot va Kussmaul) ko'krak qafasini paypaslab ko'rish. Ko'krak qafasini perkussiya qilish. O'pka auskultatsiyasi. Asosiy nafas va patologik nafas shovqinlari. Laborator va asbob-uskunalar yordamida tashxislash.
3. Yurak, qon-tomir kasalliklari. Tekshirish usullari. So'roqlash. Yurakning turli kasalliklarida og'riqli sindromi. Kasallik va hayotiy anamnez. Fizikal tekshirish usullari, Funktsional tekshiruv usullari. Yurak auskultatsiyasi. Auskultatsiya tartibi. Yurak tonlarining hosil bo'llish mexanizmi. Me'yoriy yurak tonlarini tavsiflash. Yurak shovqinlari. Yurakni asbob-uskunalar yordamida tekshirib ko'rish. EKG, EKG – tahlil qilish haqida tushuncha, FKG, ExoKG.
4. Hazm sistemasi kasalliklari. Fizikal, laborator va asbob-uskunalar yordamida hazm va gepatobiliar sistemasini tekshirib ko'rish.
5. Siydik ajratish sistemasi kasalliklarini fizikal, laborator va asbob-uskunalar yordamida tekshirib ko'rish.
6. Qon kasalliklari bilan og'rikan bemorlarni shikoyati, kasallik va xayot tarixini so'rab surishtirish. Umumiy ko'rik, suyak va limfa tugunlarini paypaslash, tukullatish. Laborator va asbob-uskunalar yordamida tekshirib ko'rish. Ichki sekretiya bezlar sistemasi. Tasnifi. Qalqonsimon bez kasalliklari. Qalqonsimon bez kasalliklarini tekshirib ko'rish. Laborator va asbob-uskunalar yordamida tekshirib ko'rish. Radioizotop usulda tekshirish.
7. Bronxitlar: o'tkir va surunkali (etiologiya, patogenezi, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

8. Krupoz va o'choqli zotiljam (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).
9. O'tkir revmatik isitma (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

6-semestr:

10. Mitral qopqog'i yetishmovchiligi va mitral stenoz (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash). Aorta qopqog'i yetishmovchiligi, aorta og'zi stenozi (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).
11. YuIK tashxisi. Stenokardiya (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).
12. Miokard infarkti (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash). Gipertoniya kasalligi (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).
13. Surunkali hepatitlar. Jigar sirrozi (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).
14. Revmatoid artrit. Tizimli qizil bo'richa (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).
15. Glomerulonefritlar, pielonefritlar tashxisi (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

5-semestr:

1. O'pkaning surunkali obstruktiv kasalliklari. Pnevmoskleroz. O'pka emfizemasi diagnostikasi (etiologiya, patogenez, klinika, tekshiruv uslublari, kechishi, davolash).
2. Nafas olish a'zolari kasalliklarini zamonaviy laborator- instrumental tekshiruv uslublari.
3. Yurak qon-tomir tizimi kasalliklarini zamonaviy tekshiruv uslublari.
4. Oshqozon osti bezi kasalliklari diagnostikasi. Zamonaviy tekshiruv uslublari.
5. Nefrotik sindrom. Zamonaviy tekshiruv uslublari.
6. Gipo va giperglikemik koma. Gipovitaminoz.
7. Semizlik, etiopatogenez, kechishi.
8. Bronxial astma kasalligida asmatik holatida birinchi yordam ko'rsatish choralari. Zamonaviy tekshiruv uslublari.
9. Yurak tug'ma nuqsonlari. Laborator va asbob-uskunalar yordamida tashxislash, oqibati, davolash.

6-semestr:

10. Uch tabaqali qopqoq yetishmovchiligi. Yurakni kombinirlangan illatlari.
11. Yurak aritmiyalarida kechiktirib bo'lmaydigan yordam choralari.
12. Simptomatik arterial gipertenziyalar.
13. Jigar sanchigi, kechiktirib bo'lmaydigan yordam choralari.
14. Miokard infarktida kechiktirib bo'lmaydigan yordam choralari.
15. O'tkir chap qorincha yetishmovchiligida kechiktirib bo'lmaydigan yordam choralari. O'pka shishida kechiktirib bo'lmaydigan yordam choralari.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- ichki kasalliklarda bemorlarni parvarishlash, asosiy tibbiy xujjatlarni bilish, EKG yuklamali sinama bilan, EKG-monitoring, exokardiografiya, dopplerografiya bilan, rentgenografiya, kompyuter tomografiya, yadro-magnit rezonans tomografiya, angiografiya va yurak kateterizatsiyasi, balg'amni bakteriologik ekish, plevra bo'shlig'ini punktsiyasi, bronxografiya, spirometriya, broxoskopiya, najasni bakteriologik ekish, najasni disbakteriozga tekshirish, oshqozon shirasi va duodenal suyuqlik tarkibini tekshirish, punktsiya (bo'shliqlar va bo'g'im oraliq'i), gepatitning markerlarini aniqlash, UTT, EGDFS, kolonoskopiya, biopsiya, eng ko'p tarqalgan ichki a'zolar kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, asoratlari, davolash usullari, tekshiruv va kompleks davo rejasini tuzish ***tasavvurga ega bo'lishi;***

- immunologik tekshiruvlar, RF, SIK, peshob bakteriologik ekmasi va antibiotikogramma to'g'risida, ichki kasalliklarning ichki a'zolar kasalliklarini tekshirish, EKG olish va o'qishni bilish, pikfluometriya qilish, mos parhez va davolash rejasini buyurish, ichki a'zolar kasalliklariga dastlabki va klinik tashxis qo'ya ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***

- tana haroratini o'lchash, antropometriya, fizikal tekshirishlarni, EKG-olish usullari, normal EKG, analizlar taxlili: bo'g'ilish xurujida ingalyatorlarni qo'llash, bo'g'ilish hurujida birinchi yordam ko'rsatish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***

- bemorni professional so'roq va ko'rikdan o'tkazish; tibbiy xujjatlar bilan ishlash, hayot uchun xavfli bo'lgan holatlarda shoshilinch terapevtik yordam ko'rsatish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

VI. Talim texnologiyalari va metodlari:

- ma'ruza;
- amaliy mashg'ulotlar;
- o'quv metodik ishlanmalar (darsliklar, qo'llanmalar, o'quv-metodik tavsiyanomalar, test savollari va situatsion masalalar to'plami va h.q.);

- videoroliklar;
- prezentatsiyalar;
- mulyajlar;
- bemorlarni kurasiya qilish.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan mavzular haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazoratni muvaffaqiyatli topshirish.

Asosiy adabiyotlar:

1. Gadayev A.G. Ichki kasalliklar, Darslik. T: Turon Zamin Ziyo, 2021 y. (lotin).
2. Xolmatova B.T., Karimov M.Sh. Tibbiyot kasbiga kirish. Darslik. Toshkent. 2021 yil.
3. Gadayev A.G. Ichki kasalliklar, Darslik. T: Turon Zamin Ziyo, 2018.
4. Ichki kasalliklar propedevtikasi. Gadayev A.G.; Karimov M.Sh.. T. 2012.
5. Моисеева В.С., Мартынова А.И., Мухина Н.А. Внутренние болезни. Учебник в двух томах. Москва. 2018 г.
6. Axmedova N.A., Sultonova M.X. Ovqat hazm qilish tizimi a'zolari kasalliklari. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2019 y.
7. Nabiyeva D.A., Muhammadiyeva S.M. Biriktiruvchi toqimaning tizimli kasalliklari, O'quv qo'llanma. Toshkent. 2021 y.
8. Гордиенко А.В. Госпитальная терапия, Учебник. Санкт-Петербург. 2016г.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Karimov M.Sh. Ichki kasalliklar propedevtikasi. Darslik. Toshkent. 2012 y.
2. Гребенев А.Л. Пропедевтика внутренних болезней. Учебное пособие. Москва. 2011 г.
3. Рябов С.И. Внутренние болезни. 1-2-т. Учебное пособие. Санкт-Петербург. 2015 г.
4. Окорочков А.Н., Диагностика и лечение болезней внутренних органов. Учебное пособие. Москва. 2009 г.
5. Струтынский А.В., Баранов А.П., Ройтберг Г.Е., Гапоненков Ю.П. Основы семиотики внутренних органов. Учебное пособие. Москва. 2013 г.
6. Скотт Стерн, Адам Сайфу, Дайн Олторн. От симптома к диагнозу. Руководство для врачей (Перевод с английского). Москва. 2008г.

Axborot manbaalari

1. www.medbook.ru
2. www.medlibrary.ru
3. www.medline.ru
4. www.tma.uz
5. www.ziyonet.uz
6. www.ssv.uz

Fan dasturi Qoraqalpog‘iston Tibbiyot Instituti huzuridagi ta’lim sohalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi soha Kengashning 2023 yil -avgustdagi -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Fan / modul uchun ma’sullar:

A.U.Ermekbaeva – Qoraqalpog‘iston Tibbiyot Instituti “Ichki kasalliklar va oila tibbiyoti” kafedrası mudiri, tibbiyot fanlari doktori (DSc)

D.B.Xoshmuratov – Qoraqalpog‘iston Tibbiyot Instituti “Ichki kasalliklar va oila tibbiyoti” kafedrası o‘qituvchisi.

Taqrizchilar:

P.Menlimuratov – Qoraqalpog‘iston Tibbiyot Instituti “Xalq tabobati va ichki kasalliklar propedevtikasi” kafedrası o‘qituvchisi, tibbiyot fanlari nomzodi

R.Xalmuratova – RKTTM, Nefrologiya bo‘lim mudiri.